

VIRTUAL TA'LIM**Azimjanov Nazirbek**

Turon international university

Gumanitar ta'lim va pedagogika kafedrası (PhD) v/b dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21972313>

Аннотация: Maqolada pedagogik tendensiyaning rivojlanishi, bo'lajak o'qituvchilarni fanni puxta o'zlashtirishlari, hamda didaktikada virtual pedagogikaning o'рни ta'lim jarayoniga kirib kelgan virtual ta'lim va uning didaktik jarayonidagi o'рни haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, bilim, tafakkur, individual ta'lim trayektoriyasi, virtual ta'lim, ijodkorlik, kompetensiya, texnologiya.

Аннотация: В статье описывается развитие педагогических направлений, углубленное освоение науки будущими учителями, а также роль виртуальной педагогики в дидактике.

Ключевые слова: образование, воспитание, знание, мышление, индивидуальная образовательная траектория, виртуальное образование, креативность, компетентность, технология.

Annotation: The article describes the development of pedagogical trends, thorough mastering of science by future teachers, and the role of virtual pedagogy in didactics.

Key words: education, upbringing, knowledge, thinking, individual educational trajectory, virtual education, creativity, competence, technology.

Respublikamizda amlaga oshirilayotgan ta'lim muhitida virtual ta'lim o'ziga xos ahamiyatga ega. Virtual boqliqqa mas'uliyatli munosabat - shaxsning virtual boqliqda shaxslararo va jamoa bilan aloqadorlikda o'zining ijtimoiy va ma'naviy yetukligini aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni da "talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish; o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. [1]

O'tkazilayotgan didkatik jarayonlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, pedagogik treninglar ham talabalar faolligi va tashkilotchiligini yanada oshirishga,

shuningdek, o'quvchilarimizga esa raqamli texnologiyalarning roli va o'rnini tushuntirishga qaratilgan. O'z navbatida virtual tafakkur ijodkorlik va tashabbuskorlik, kreativlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi", - deya alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtda amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzoq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi sir emas. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Virtual borliqqa mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlaridan biri virtual-pedagogik madaniyat hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirishning muhim usuli – bu o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bu esa maxsus pedagogik adabiyotlarni mustaqil o'rganish, pedagogik fikrlashini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, talabalarning virtual-pedagogik madaniyati darajasini oshirish oliy ta'lim muassasasida o'qitiladigan fanlar mazmuniga integratsiyalashgan.

Virtual ta'lim talabalarga quyidagi ijobiy ta'sir etish mumkun:

- talabalarda fanlarga kognitiv qiziqishni oshirishga yordam beradi;
- mutaxassisligi bo'yicha fanning ilg'or yutuqlarini yaqqol tasavvur qilishga yordam beradi;
- virtual ta'lim talabalarni yangi rolda o'zini namoyon qilish imkonini beradi;
- virtual ta'lim mustaqil ishlab chiqarish, modellashtirish faoliyati ko'nikmalarini shakllantiradi;
- talabalarning muvaffaqiyat holatini yaratishga yordam beradi. Virtual ta'lim o'quv jarayonida quyidagi didaktik imkoniyatlarni yaratib beradi:

-talabalar bilan virtual ta'lim vositalari yordamida interfaol muloqot o'tkazish imkoniyati;

- obyektlarni, jarayonlarni, hodisalarni (ham real, ham "virtual") vizualizatsiya qilishning zamonaviy vositalar imkoniyatlarini, ularning modellarini, rivojlanish dinamikasida, vaqt va fazoda taqdim etishni o'z ichiga olgan o'quv ma'lumotlarini kompyuterda vizuallashtirish. Pedagogik tadqiqotlarda "Virtual pedagogika" tushunchasi keng qo'llanila boshlandi. Virtual pedagogika virtuallikning, raqamli mediavositalarining qo'llanilishi, shuningdek raqamli ta'lim sharoitida yangi shart-sharoitlar va talablarni tadqiq qilib boradi.

Bilimlar davridan ma'lumotlar davriga transformatsiya jarayonida reallik va virtuallik o'rtasidagi qiyoslash ortib boradi.2

Pedagogik amaliyotda virtual borliq tizimlari tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Bu tizimlar o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlarni o'z ichiga oladi. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunilsa, interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdadagi obyektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. [2]

"Virtual ta'lim" tushunchasi mazmunini tushunish virtuallik sifatlarini belgilash imkonini beradi. Real mavjud obyektlarning o'zaro hamjihatlikdagi harakati virtual jarayonlarning asosi hisoblanadi. O'qituvchi bilan o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyati virtual holatni tashkil etsa, real subyekt (o'qituvchi-o'quvchi)larning virtual holatdagi ichki o'zgarishlari ta'lim jarayoni va sifati bilan tasiflanadi.

Ta'lim jarayonida virtual texnologiyalar quyidagi imkoniyatlari:

- o'quv axborotlarining tezkor yangilanishini inobatga olgan holda ularni taqdim etish tezligini zarur darajada bo'lishiga ko'maklashadi;

- real faoliyatga mos keluvchi hajm, psixologik va mantiqiy-tarkibiy tuzilma mohiyatga ko'ra o'quv axborotini to'la taqdim etilishini ta'minlaydi;

-ta'lim oluvchilarga turli obyekt, tushuncha, jarayon, ish-harakat hamda faoliyatni tasavvur qilishi, anglashi va eslab qolishida tezkorlikni ta'minlaydi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, talabalarning yashash va ijtimoiy muhiti virtual-pedagogik madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Virtual ta'limni nafaqat masofadan turib o'rganish, balki "subyektlar va ta'lim obyektlarining o'zaro ta'siri jarayoni va natijasi, ularni yaratish bilan birga amalga oshiriladi, ularning o'ziga xosligi ushbu obyektlar va subyektlar tomonidan belgilanadi". Virtual ta'limning fazoviy modelini qurish insonning ichki dunyosini

ko'plab kengayib borayotgan sohalar: intellektual, emotsional-obrazli, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda aks ettirishga olib keladi, virtual-pedagogik madaniyat virtual tafakkur bilan uyg'unlikda rivojlanadi Virtual borliqqa ijodiy va ijobiy munosabatni rivojlantirishning yana bir pedagogik xususiyati virtual moderatorlik va tashkilotchilik qobiliyati hisoblanadi.

Virtual ta'lim boshlang'ich ta'limda unib o'sayotgan yosh avlod uchun ham atrof-olamni o'rganish, fanlardan barcha bilimlarni o'zlashtirish, ijtimoiy faol kompetensiya va qobiliyatlarni egallashlarida asosiy bosqichi bo'lib hisoblanadi. Bu ta'lim davrida bolalarning o'qish motivatsiyasi, tashqi olamga qiziqishlari kuchayadi, ularda jamoa ruhiyatini hamda o'zligini his etish, o'ziga nisbatan tanqidiy tahlil barqarorlashgan tarzda tus oladi. Shuning uchun tarbiya, jamiyat va davlat talablarini bajarishda boshlang'ich bilimlar o'qitiladigan fanlar mazmunini takomillashtirish, o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazariy hamda amaliy kompetensiyalarini shakllantirish kabilar muhim omillardan hisoblanadi.

Virtual ta'lim muhiti Virtual ta'lim sohasi - tashqi dunyoga keng tarqalib, hissiy, intellektual va intellektual qobiliyatini ishlatadigan o'quvchining faoliyati orqali o'zining tashqi sohalarini kashf eta oladigan makondir.

Virtual o'quv muhiti - Bu o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan ta'lim maqsadlarida tashkil etilgan va foydalaniladigan mahalliy, korporativ va global kompyuter tarmoqlarining axborot mazmuni va kommunikativ imkoniyatlarini o'z ichiga oladi;

- O'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini samarali muloqot qilish uchun yaratilgan va ishlab chiqilgan;

Ta'lim olishning an'anaviy usullaridan farqli o'laroq, ta'lim kommunikatsiyaning tabiati, bilvosita, ham uzoq, ham an'anaviy tarzda ko'zdan-ko'zga" olib boriladi.

Virtual ta'lim muhiti tezkor o'sib borayotgan, ko'p bosqichli va ko'p funksional tizimni birlashtiradi:

1) asinxron individual ta'limning ochiq modeli doirasida o'quv jarayonida ishtirokchilarning o'zaro aloqalariga xos innovatsion va an'anaviy texnologiyalar;

2) axborot resurslari: ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar, kutubxonalar, elektron o'quv material lari va h.

3) zamonaviy dasturiy ta'minot: dasturiy ta'minot kabinalari, elektron aloqa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
2. Воронин А.С. Виртуальная педагогика – педагогика XXI века // М.: Новые образовательные технологии в вузе, 2009. – С. 71-74.
3. Хуторской А.В. Виртуальное образование и русский космизм // EIDOS-LIST. - 1999. - Вып.1(5): <http://www.eidos.techno.ru/list/serv.htm>
4. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика Дарслик.Т. "Сано-стандарт", 2017. 21 б.